



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshburiev B.M. “Veterinariya akusherligi.” Darslik. Toshkent, 2018 yil
2. Eshburiev B.M., Eshbutiyev S.B., Djumamov S.M. “Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-laboratoriya mashg’ulotlari” Samarqand, 2020 yil.
3. Ainsworth R.W. (1971). Fungal Diseases of Animals. Commonwealth Agricultural Bureaux.
4. David E. Noakes Timothy J. Parkinson Gary C. W. England. Veterinary Reproduction and obstetrics. Copyright 2019 by Elsevier. Ltd. All rights reserved.
5. Студенцов А.П., Шмерон В.С., Никитин В.Я. и пр.; Под ред. В.Я. Никитина и М.Г. Миролубов. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения 7-е изд., перераб. и доп. Учебник - М.: Колос 1999 год.
6. Safarov, A., Kunisov, B., Arepbaev, I., & Sazmand, A. (2024). First record of nasopharyngeal myiasis caused by *Cephalopina titillator* (Clark, 1816) in camel (*Camelus dromedarius* Linnaeus, 1758) in Uzbekistan. *Veterinary Parasitology: Regional Studies and Reports*, 51, 101029.
7. Курбанова, А. И., Пиржанова, А. М., & Кунисов, Б. М. (2019). Современное состояние паразитофауны рыб бассейнов Аральского моря. Теория и практика современной науки, (2 (44)), 231-234.
8. Курбанова, А. И., Туремуратова, Г. И., Уразымбетова, Н. П., & Кунисов, Б. М. (2018). ПАРАЗИТОФАУНА РЫБ НЕКОТОРЫХ ВОДОЕМОВ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН. Теория и практика современной науки, (4 (34)), 354-358.
9. Mechouk, N., Safarov, A., Kunisov, B., Sazmand, A., & Deak, G. (2025). A six-legged anomalous *Dermacentor niveus* (Acari: Ixodidae) female tick from a camel (*Camelus dromedarius*) in Uzbekistan. *Persian Journal of Acarology*, 14(2), 357-360.
10. Кунисов, Б. М. (2021). ПЕРСПЕКТИВА РАЗВИТИЯ АКВАКУЛЬТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. Экономика и социум, (6-1 (85)), 749-751.

XORAZM VILOYATI GURLAN TUMANIDA QORAMOLLARDA *FASCIOLA GIGANTICA* BILAN ZARARLANISHI

Kushimmatov J.B., Muxammadiyev S.E., Madrimov Sh.X., Xayotov B.B.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Fassiolyoz barcha qishloq xo’jalik hamda bir necha tur yovvoyi o’txo’r sut emizuvchilarning dastlab jigar to’qimalarida, so’ngra o’t yo’llarida va o’t xaltasida parazitlik qiluvchi, o’tkir, surunkali, aralash oqimlarda kechadigan xavfli gelmintoz bo’lib hisoblanadi.

Karimov S.A. va Abdullayev O.R. (2020) ta’kidlaganidek, *Fasciola* turi parazitlari jigar to’qimasida mexanik shikastlanish, o’t yo’llarida esa yallig’lanish jarayonlarini keltirib chiqaradi, bu esa hayvonlarda intoksikatsiya, kamqonlik va mahsuldorlikning keskin kamayishiga olib keladi.

Shuningdek, Beknazarov B.X. (2022) o’z tadqiqotlarida *Fasciola gigantica* ning biologik faoliyati bevosita iqlim va yaylov sharoitlariga bog’liqligini, ayniqsa suv havzalari yaqinida joylashgan nam yaylovlarda kasallikning yuqish darajasi yuqoriligini qayd etgan.

1973-1976 yillarda Xorazm viloyatida qoramollar va qo’ylar orasida fassiolyoz keng tarqalgan bo’lib, uning qo’zg’atuvchisi eng yuqori patogenli fassiola turi - *F.gigantica* hisoblangan. Fassiolyozni yilning barcha mavsumlarida uchrashi, u bilan qoramollarni bahorda o’rtacha 32,3 foiz, yozda – 35,4 foiz, kuzda 43,3 foiz, qishda - 40,9 foiz zararlanganligi kuzatilgan. Fassiolyozga chalingan qoramollarning jigarida har bir mavsumda o’rtacha 20,9 nusxadan 29,3

nusxagacha fassiolalarning parazitlik qilishi, yoz oylarida barcha fassiolalarning 18,3 – 28,4 foizini, kuzda esa 38,4 foizini, qishda 17,3 foizini yosh parazitlar tashkil qilishi aniqlangan, bahorda esa yosh fassiolalar topilmagan. Xorazm viloyati sharoitida bir yoshgacha bo'lgan buzoqlarni gelmintologik yorish yo'li bilan tekshirilganda ularni o'rtacha 29,2 foiz, 2 yoshgacha bo'lgan qoramollarni esa 48,7 foiz, 2 yoshdan yuqori bo'lgan ushbu tur hayvonlarni esa 37,5 foiz fassiolayozga chalinishi aniqlangan. *F. gigantea* ning invaziya intensivligi hayvonlar yoshiga mos ravishda o'rtacha 17,3; 33,1 va 25,4 nusxaga to'g'ri kelgan. Bir yoshgacha bo'lgan buzoqlarda fassiolalarning sentyabr oyidan boshlab jinsiy voyaga yetishishi va ularning tashqi muhitga tuxum ajratib chiqarishi kuzatilgan.

Tadqiqot maqsadi. Xorazm viloyati Gurlan tumanida qoramollar orasida jigar qurti (*Fasciola gigantea*) bilan zararlanish holatlarini aniqlash, parazitning morfologik xususiyatlarini o'rganish, invaziya darajasini baholash hamda yosh va jinsiy yetilgan shakllarning nisbiy miqdoriy tarkibini tahlil qilish orqali fassiolayozning epizootologik holatini va chorvachilikka tahdid darajasini aniqlash.

Tadqiqot metodikasi va natijalari: Tekshirish uchun namunalar joriy yilning avgust–sentabr oylarida Xorazm viloyati Gurlan tumanida joylashgan “O'razmat sklotchi” MCHJga qarashli 2-sonli so'yish korxonasiga go'sht mahsuloti uchun olib kelingan qoramollarning *Fasciola gigantea* bilan zararlangan jigarlaridan olindi. Tadqiqot uchun 3–5 yosh oralig'idagi 15 bosh so'yilgan qoramoldan fassiolayoz belgilari kuzatilgan 5 ta jigar namunasi hayvon gavdasidan to'liq ajratib olinib, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali o'quv laboratoriyasiga olib kelindi.

Laboratoriya sharoitida har bir jigar namunasi tashqi ko'rikdan o'tkazildi. O't xaltasi alohida kesilib, ichki yuzasi o'rganilganda, devorlarining qalinlashganligi va qattiqlashganligi, qizil rangli nuqtasimon yallig'lanish o'choqlari hamda qoramtir tusga kirgan quyuq o't suyuqligi aniqlangan. Ayrim hollarda qon laxtasiga o'xshash aralashmalar kuzatildi. O't yo'llarini yorib ko'rish natijasida 3–8 donagacha, jami 24 ta jinsiy yetilgan *F. gigantea* topildi. Barcha namunalar bo'yicha yirik o't yo'llarida patologik o'zgarishlar – fibrozlashgan va qattiqlashgan to'qimalar, yallig'lanish o'choqlari mavjudligi qayd etildi. Jigar qaychi yordamida o't yo'llari bo'ylab kesilib, ularning ichki qismlari barmoqlar yordamida siqib ko'rilganda 5–12 donagacha, jami 40 ta 3–5 sm uzunlikdagi, jinsiy yetilmagan, tuxum hosil qilish xususiyatiga ega *F. gigantea* lichinkalari aniqlandi. Yosh fassiolalarni aniqlash maqsadida jigar mayda bo'lakchalarga ajratilib, suv to'ldirilgan idish ichida ezildi. Olingan aralashma 20 daqiqa davomida tindirilib, ustki qismi to'kildi va cho'kma bir necha marotaba yuvildi. Natijada cho'kmani qora fonli Petri idishida mikroskop yordamida tekshirilganda, jigarning parenximasida yashovchi 8–18 donagacha, jami 65 ta yosh *F. gigantea* lichinkalari topildi. Umuman olganda, gelmintologik tekshiruvdan o'tkazilgan 15 bosh qoramolning 20 foizida jigar qurti bilan zararlanish holati qayd etildi. Aniqlangan 129 ta parazit namunalarining 35 tasi jinsiy yetilgan, 94 tasi esa yosh va jinsiy yetilmagan shakllar ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar *Fasciola gigantea* bilan zararlanishning o'rta darajadagi invaziya intensivligini ko'rsatib, parazitning faol rivojlanish bosqichida ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Gurlan tumanida olib borilgan gelmintologik tekshiruvlar natijasida qoramollarning *Fasciola gigantea* bilan umumiy zararlanishi o'rta darajada ekanligi aniqlandi. Tadqiqotda 3–5 yoshdagi 15 bosh so'yilgan qoramolning 20 % da jigar qurti bilan zararlanish kuzatildi. Jigar namunalari laboratoriya sharoitida o'rganilganda, yirik o't yo'llarida fibrozlashgan va qattiqlashgan to'qimalar, yallig'lanish o'choqlari, shuningdek, jinsiy yetilgan, jinsiy yetilmagan va yosh *F. gigantea* lichinkalari topildi. Aniqlangan jami 129 ta parazitning 35 tasi jinsiy yetilgan, 94 tasi esa yosh va jinsiy yetilmagan shakllardan iborat bo'lib, bu parazitlarning faol rivojlanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. Natijalar *F. gigantea* bilan zararlanishning biologik xususiyatlarini va invaziya intensivligini baholash uchun muhim ma'lumot beradi hamda qoramol sog'lig'ini nazorat qilish va profilaktik choralarni rejalashtirishda asos bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуладзе К.И., Демидов Н.В., Непоклонов А.А., Никольский С.Н., Павлова Н.В., Степанов А.В. Паразитология и инвазионные болезни сельскохозяйственных животных. М.: ВО «Агропромиздат», 1990 – 464 с.
2. Karimov S.A., Abdullayev O.R. Veterinariya parazitologiyasi. – Toshkent: “Fan”, 2020.
3. Beknazarov B.X. *Fasciola gigantica* ning biologik xususiyatlari va yaylov sharoitida tarqalishi. – O‘zbek veterinariya jurnali, 2022.
4. Даминов А.С. “Республиканинг турли биогеоценозларида қорамоллар трематодозларининг эпизоотологик ва иммунологик хусусиятлари”. в.ф.д., дисс. Самарқанд: СамВМИ, 2016.- 200 б.
5. Баягин В.Н. Вопросы эпизоотологии фасциолёза жвачных и опыт У оздоровления от этой инвазии животноводческих хозяйств севера Узбекистана. Автореф. дисс... канд. вет. наук.- Самарканд.: СамСХИ 1979.-18
6. Шакиев Е.Ш. Эпизоотологические особенности фасциолёза жвачных животных в Каракалпакской АССР. //Труды УзНИВИ. Самарканд, 1978. С. 148-151.
7. Safarov, A., Kunisov, B., Arepbaev, I., & Sazmand, A. (2024). First record of nasopharyngeal myiasis caused by *Cephalopina titillator* (Clark, 1816) in camel (*Camelus dromedarius* Linnaeus, 1758) in Uzbekistan. *Veterinary Parasitology: Regional Studies and Reports*, 51, 101029.
8. Курбанова, А. И., Пиржанова, А. М., & Кунисов, Б. М. (2019). Современное состояние паразитофауны рыб бассейнов Аральского моря. Теория и практика современной науки, (2 (44)), 231-234.
9. Курбанова, А. И., Туремуратова, Г. И., Уразымбетова, Н. П., & Кунисов, Б. М. (2018). ПАРАЗИТОФАУНА РЫБ НЕКОТОРЫХ ВОДОЕМОВ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН. Теория и практика современной науки, (4 (34)), 354-358.
10. Mechouk, N., Safarov, A., Kunisov, B., Sazmand, A., & Deak, G. (2025). A six-legged anomalous *Dermacentor niveus* (Acari: Ixodidae) female tick from a camel (*Camelus dromedarius*) in Uzbekistan. *Persian Journal of Acarology*, 14(2), 357-360.
11. Кунисов, Б. М. (2021). ПЕРСПЕКТИВА РАЗВИТИЯ АКВАКУЛЬТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. Экономика и социум, (6-1 (85)), 749-751.

STRONGILYATOZLAR HÁM OLAR TÁREPINEN SHAQIRILATUGÍN KESELLIKLER HAQQINDA ULIWMA MAĞLIWMATLAR

Kurbaniyazova G.M., Shakilov U.N., Allambergenov D.M.

Samarqand mámleketlik veterinariya medicinası, sharwashılıq hám biotexnologiyalar universiteti Nókis filiali

Kirisiw. Trixostrogilyoz – Sozılmalı aǵımda sayız jershi invazion kesellik bolıp, *Trichostrongylus* áwladına tiyisli gelmintleriniń jıńışke bólim isheklerinde hám geyde ultabarda parazitlik etiwı áqibetinde qozǵatıladı. Haywanlarda ótkerilgen qatar tolıq jarıp úyreniwlerden juwmaq etkende, Ózbekstan sharayatında trixostrogiluslarınń - *T. axes*, *T. colubriformis*, *T. probulurus*, *T. skrjabini*, *T. orientalis*, *T. capricola*, *T. vitrinus* sıyaqlı túrleri ushraydı. Trixostrogiluslar trixostrogilidlar shańaraǵınıń eń kishkine wákilleri esaplanadı.

Respublikamız sharwa haywanlari arasında kóbirek *Trichostrongylus vitrinus* túri ushraydı. Usı Gelmintlerni I.V. Orlov tómendegishe xarakteristikalaǵan: *T. vitrinus* lar ipsimon, qızg’ish turdegi nematodalar bolıp tabıladı. Óneshte 0,490 -0, 620 mm uzunlıqqa iye. Shıǵarıw tesigi bas bóleginen 0, 105-0, 175 mm aralıqta jaylasqan. Erkeginiń dene uzunlıǵı 4, 0-6, 25 mm